

INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Dehqonboyeva Malika Bahodir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'quvchi yoshlarning ta'lim trayektoriyasi muhitida kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirishda individual yondashuv haqida so'z boradi.*

Abstract: *This article talks about an individual approach to improving the communicative competence of pupils in the environment of the educational trajectory*

Kalit so'zlar: *Ta'lim trayektoriyasi, individual yondashuv, kommunikativ kompetensiya*

Key words: *Educational trajectory, individual approach, communicative competence.*

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv o'quvchi yoshlar tomonidan bir-biridan ajratilgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni uyg'un holatda o'zlashtirishni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan o'qitish usullari tizimi turlicha ta'riflanadi. O'qitish usullarini tanlash va loyihalash tegishli kompetensiyalarning tuzilishi va ta'limda bajaradigan funksiyalariga asoslanadi. Zamonaviy kadrlar oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalardan biri - malakali mutaxassislar sifatida o'zligini, o'z qobiliyatlari, individualligi, shaxsiy fazilat hamda xislatlarini bilgan tarzda atrofidaqilar mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko'rsatishdir. Yosh avlodni yangicha ta'lim standartlari asosida, jahon talablariga javob beruvchi mutaxassislar qilib tarbiyalash ishi oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan yoshlar uchun yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari, risolalar tayyorlashning ham yangicha uslublarini talab etmoqda. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga tayanishlari talab etiladi. Bu borada ta'lim tizimida ijobiy muhitini shakllantirish, fan yutuqlari, o'qitish shakllarida maqsadlarni aniq belgilash asosida ko'zlangan natijaga erishish borasida «o'qituvchi-o'quvchi» va «o'quvchi-o'quvchi» o'zaro hamkorligini ta'minlash biz e'tirof etayotgan, uni maqbul yo'l deb qo'llayotgan innovatsion yondashuvni qaror toptirish asosida kechadi. Shu asnoda pedagogik jarayonga innovatsiyalarni joriy etishimiz, ta'lim sohasidagi normativme'yoriy hujjatlar talablarini bajarish bilan bir qatorda yosh avlod tarbiyasiga vijdonan ma'suliyat, o'z ijodkorlarimizni baxshida etish, mamlakat-jamiyat manfaatlari yo'lida kasbiy burchimizni mohirlik va tinimsiz izlanishlarimiz mahsulida bajara olsakgina, albatta milliy pedagogikamizda hamkorlik yanada ravnaq topadi. Ilm-fan bir joyda qotib turmay, doimiy yangilanishlarni taqozo etadi. Masalan, bir vaqtlar ta'limda umumiylik, barcha o'quvchilarni bir xil, o'zgarmas dasturlar

asosida o'qitish shakli keng qo'llanilgan bo'lsa, bugunga kelib aksariyat davlatlarda individual ta'limga faol o'tilgan. Bu uzluksiz ta'limning har bir bosqichida tatbiq etilyapti. Ya'ni ta'limning maktabgacha, maktab, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi bosqichlarida individuallikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu zamonaviy tilda ta'lim trayektoriyasi deb ham yuritiladi. Ta'lim faoliyatini individuallashtirishning eng istiqbolli modellaridan biri bu — ta'lim trayektoriyasi hisoblanadi.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv g'oyasi "2010 yilgacha Rossiya ta'limini modernizatsiya qilish kontseptsiyasi" ni tayyorlash paytida paydo bo'lgan va hozirda ta'lim qadriyatlari va maqsadlaridagi o'zgarishlarning alomati sifatida qaralmoqda. Fuqarolar undagi o'zgarishlarni jamiyatning turli sohalarida yashash va ishlash uchun minimal zarur (standart) talablarni o'zlashtirish zarurati bilan bog'laydi. Kompetensiya yondashuvi- bu ta'lim natijasiga qaratilgan yondashuv bo'lib, natijada olingan ma'lumotlarning yig'indisi emas, balki shaxsning turli muammoli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati hisobga olinadi. Ushbu holatlarning majmui ta'lim muassasasining turiga (o'ziga xos xususiyatlariga) bog'liq: umumiy yoki kasb-hunar ta'limi, boshlang'ich, o'rta yoki oliy, qanday kasb-hunar ta'limi. Kompetensiya yondashuvi ta'lim natijalari ta'lim tizimidan tashqarida muhim deb tan olinadigan yondashuvdir. Binobarin, kompetensiyaga asoslangan yondashuv mantiqida ta'lim mazmunini tashkil etish birliklari va ta'lim jarayoni samaradorligini baholash (sifatni baholash) usullarini o'zgartirish zarur. Hozirgi kunda o'quvchilarda o'quv predmetlari bo'yicha faqatgina bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishning o'zi etarli emasligi ma'lum bo'lmoqda. Jumladan: ta'lim muassasasini muaffaqiyatli bitirgan ayrim o'quvchilar, hayotda ko'p muvaffaqiyatsizliklarga uchraydi.

O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ona tili va boshqa fanlardan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni egallashlariga yordam beradi. Chunki o'quvchilar muloqot qilish natijasida dunyoni yanada kengroq anglab boradilar. Bu esa ularning ta'limning keyingi bosqichlarida ham bilimlarni puxta egallashga yordam beradi. O'quvchilarda kommunikativlik kompetensiyasini shakllantirishning yana bir muhim xususiyati shundaki, Milliy o'quv dasturiga ko'ra o'quvchilarda fanlarga oid kompetensiyalarni tarkib toptirish lozimligi belgilangan. Jahonning rivojlangan mamlakatlarining ta'lim tizimidagi ilg'or tajribalarni o'rganish uzluksiz ta'lim jarayoniga kompetensiyali yondashuvni tatbiq etish zarurligini ko'rsatdi. Uzluksiz ta'lim jarayoniga kompetensiyali yondashuvni tatbiq etish orqali quyidagi vazifalarni amal oshirish:

- Davlatimizning kelgusida jamiyat, fan, ishlab chiqarish va shaxsning mustaqil hayotdagi muammolarni hal etishga qodir yoshlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini qondirish maqsadida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi kutilmagan vaziyatlarda ijodiy qo'llashga o'rgatish;

- Ta'lim mazmunini muammoli o'quv vaziyatlarni yaratish orqali o'rganish asnosida o'quvchilarning fan asoslarini o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, qiziqishlarini rivojlantirish, shaxsiy sifatlarni tarkib toptirish;

- O'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini aniq obyektlarga qaratish va mavjud muammolarni hal etishga o'rgatish orqali DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish barobarida o'quvchilar tomonidan ijodiy faoliyat tajribalarini egallanishiga erishish;

- O'quvchilarni aniq amaliy faoliyatga tayyorgarligini orttirish orqali kasbga, ijodiy faoliyat tajribalarini rivojlantirish natijasida fan yo'nalishiga yo'llash;

- Fanlardan o'zlashtirilgan ilmiy-nazariy bilimlarini aniq va jarayonli muammoli vaziyatlarda amaliyotda qo'llash orqali o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash imkoniyati mavjud.

Ta'lim trayektoriyasi muhitida ta'lim jarayoniga kompetensiyali yondashuv o'qitish maqsadlariga erishish uchun ta'lim mazmunini boyitish o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va natijalarini tahlil etishga imkon beradigan umumiy prinsiplar yig'indisi sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2018yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. Xalq so'zi gazetasi

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF4947-son 4. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 23.09.2020 йилдаги ЎРҚ-637-сон

4. J.E. Usarov Individual ta'lim trayektoriyasi mustaqil fikrli yoshlar safini kengaytiradi «Yangi O'zbekiston» gazetasining 2023-yil 23-dekabr kungi 267 (1056)-soni

5. F.O. Haqqiyeva Technologies For Developing Management Competence of Leaders of Non-Government Preschool Education Organizations Pedagogical Cluster- Journal of Pedagogical Developments PCJPD: Volume 1, Issue 2, December 2023, online: ISSN 2956-896X